


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60230300 – Noshirlik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent–2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil « 25 » 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo’llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo’llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlar tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar	8
3.	Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar	11
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	11
	Bibliografik ma’lumotlar	13
	Kelishuv varog’i	14

1. Umumiy tavsifi

60230300 – Noshirlik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim shakli bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi. Bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi 60260300 – Noshirlik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolati doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat Attestasiya Komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari.

60230300 – Noshirlik ishi bakalavriat ta’lim yo’nalishi nashriyotlar va matbaa korxonalari, nashriyot-matbaa majmualari, internet nashrlari uchun bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, faoliyat vositalari, usullari, metodlari; noshirlik mahsulotlarini bosma va raqamli shaklda chiqarish hamda tarqatish, noshirlik ishi sohasidagi texnologiyalar, texnik va dasturiy mahsulotlar, iqtisodiyot, boshqaruv va marketing, ilmiy tadqiqot;

Gumanitar sohadagi ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug’ullanish;

Ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari;

nashriyotlar va matbaa korxonalari, nashriyot-matbaa majmualari, internet

nashrlari;

nashriyot-matbaa konsernlari va bosmaxonalar;

IT parklar;

davlat va nodavlat noshirlik mahsulotini bosma va raqamli shaklda chiqarish va tarqatish idoralari;

noshirlik ishi sohasidagi texnologiyalar, texnik va dasturiy mahsulotlar, iqtisodiyot, boshqaruv va marketing, ilmiy tadqiqot, faoliyati axborot xizmati ko’rsatish bilan bog’liq tashkilotlar;

davlat boshqaruv organlari va turli tashkilotlarning matbuot bo’limida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo’ladi.

60230300 – Noshirlik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo’nalishini tamomlagandan so’ng, noshirlik ishi jarayonlari, kitob, jurnal, gazeta, bosma nashr, elektron nashr, matn, badiiy adabiyot, verbal va vizual ma’lumotlar, muallif ma’lumotlarining originali, nashr originali, raqamli hujjat, ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish, tarqatishning vositalari va texnologiyalari, tahrir-noshirlik faoliyatining shakl va jarayonlari, noshirlik ishi mahsulotlarini tarqatish, noshirlik ishining axborot-analitik va tashkiliy-boshqaruv ta’minoti, noshirlik ishi sohasida ilmiy tadqiqotlar, noshirlik ishining zamonaviy texnologiyalari va metodlarning, nazariy masalalari, raqamli dizayn texnologiyalari, nashr ishlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, noshirlik ishi sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; jarayonni boshqarish va faoliyatni tashkil etish, marketing, kompyuter dizaynining zamonaviy shakllari bilan shug’ullanuvchi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari

- *tahrir-noshirlik faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *loyihalash-innovatsion faoliyat;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati* va shu kabilarni o’z ichiga oladi.

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60230300 – Noshirlik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Tahrir-noshirlik faoliyati:

noshirlik ishi tamoyillari va mezonlariga rioya etish, zaruriy materiallarni tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, noshirlik ishiga oid materiallarni modellashtirish malakasiga ega bo’lish;

Xorijiy tillarni mukammal egallash va ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olish; mualliflar va qo’lyozmalar bilan ishlash, ularni tahrirlash, nashriyotlarning turli bo’limlari (logistika, ishlab chiqarish, marketing, tarqatish), kitoblar va lingvistik dasturiy ta’minot yaratish usullarini egallashi va ulardan unumli foydalanish;

Mas’ul muharrir sifatida internet-portalda yoki bosma nashrda yoxud axborot agentligi lentasidagi ma’lumotlarni joylashtirish, fakturani, ya’ni nashr

kontseptsiyasining g‘oyasiga materiallar va mavzuning mosligini tekshirish, ta’sirchan sarlavhalarni o‘ylab topish, ijodiy guruh ishini muvofiqlashtirish, nashrlarning tematik rejasini tayyorlash, sinchiklab qilingan tahrirdan so‘ng materialni matbuotda yoritib olish malakasiga ega bo‘lish;

bild-muharrir (fotosuratlarini tanlovchi muharrir) sifatida maqola uchun fotosuratlarini topish, fotosuratlar sifatini baholash, retush, fotomaterialning sahifaga joylashtirish bilan shug‘ullanish malakasiga ega bo‘lish;

kontent-menejer (nashr yoki veb-sayt mazmuni uchun mas’ul shaxs) sifatida veb-saytni zaruriy mazmun (matnli va grafik ma’lumotlar) bilan to‘ldirish, foydalanuvchilar bilan interaktiv ishlash, muloqot qilish malakasiga ega bo‘lish;

kopirayter (reklama matnlarini yozadigan mutaxassis) sifatida reklama qilingan mahsulotni sotib olish istagini paydo qila oladigan matn yozish malakasiga ega bo‘lish;

musahhih sifatida matnni asl nusxasi bilan solishtirish va matn teruvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan imloviy va ishoraviy xatolarini tuzatish, o‘rnatilgan texnik qoidalarning buzilishini bartaraf etish, rasmlar, sxemalar, diagrammalar ostidagi yozuvlarni, satrdagi harflar orasidagi masofaning to‘g‘ri bo‘lishini tekshirish malakasiga ega bo‘lish;

media-menejer sifatida turli mass-medialarini boshqarish, ularning rivojlanish strategiyasini belgilash, medialoyihalarni boshqarish va turli ommaviy axborot vositalarida media-mahsulotlarni yaratish, media-rejalashtirishni amalga oshirish, brend strategiyasini va bozorda OAV marketingini belgilash, reklama byudjetlarini tuzish, reklama beruvchilar uchun foydali takliflarni ishlab chiqish va boshqa iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

mediabayer sifatida nashriyot uylari bilan shartnoma tuzish va uning to‘liq bajarilishini nazorat qilish: kafolat xatlaridan tortib, maketni yetkazib berish va to‘lovlar, schyot-fakturalarni olish, qabul qilish dalolatnomalari va sinov nusxalari (e’lon qilingan reklama nashrlari nusxalari) bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

media-dizayner sifatida mediamahsulotni loyihalashni amalga oshirish, buyurtmachilarning xohishiga ko‘ra dizayn-kontseptsiyalar ishlab chiqish, tijorat takliflarini badiiy bezash (loyihalarni taqdimot qilish), nostandart reklama konstruktsiyalarni 3D-vizualizatsiya qilish hamda turli formatdagi tashqi reklama uchun maketlarni yaratish, fayllarni nashrga tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Adobe Indesign, Corel Draw, Power Point dasturlarida ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

har qanday multimedia mahsuloti xususida, dizayn, video, raqamli, zamonaviy multimedia tendensiyalari va reklama sohasidagi texnik yangiliklardan xabardor bo‘lish;

o‘zbek tili va adabiyotini, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini chuqur o‘zlashtirish;

o‘zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalana olish, buning uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Vatanga muhabbat va sadoqat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida

shakllanib borish;

keng dunyoqarashga ega bo’lgan va mustaqil fikrlaydigan ma’naviy yetuk mutaxassis sifatida shakllanish;

rivojlangan xorijiy mamlakatlar noshirlik ishi tizimi bilan yaqindan tanishgan holda ulardagi ilg’or usullarini jarayonga tatbiq qila olish qobiliyatiga ega bo’lishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

o‘zbek tili va adabiyoti sohasida olingan nazariy va amaliy bilimlarni qo‘llash orqali ilmiy tadqiqotlar olib borish;

noshirlik ishiga oid tahrir-noshirlik, axborot va marketing texnologiyalarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, asoslash va tatbiq qilish;

tadqiqotlar natijasini referatlar, taqdimotlar, ilmiy ma’ruzalar, ilmiy maqolalarda taqdim qilish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid nazariy masalalar mavzularida tadqiqotlar olib borish;

tadqiqot mavzusiga oid ingliz tilidagi materiallarni o‘qiy olish va ulardan amalda foydalana olish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirish va topish;

kasbiy faoliyat obyekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

noshirlik ishiga oid xorijiy davlatlardagi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish;

ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Loyihalash-innovatsion faoliyatida:

noshirlik korxonasi va noshirlik sohasining innovatsion rivojlanish sur’atini oshirish uchun noshirlik ishidagi tadbirkorlikning tarixiy tajribasidan va zamonaviy tahrir-noshirlik ishi yutuqlaridan keng foydalanish;

noshirlik korxonasining marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun kitob bozori, elektron nashrlar bozori, ommaviy axborot vositalari bozori va raqobat muhitini tadqiq qilish;

yangi noshirlik loyihalarini yaratish, ularning konseptsiyalari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, noshirlik korxonasining mavzuviy va ishlab chiqarish rejalarini shakllantirish;

noshirlik faoliyatidagi loyihalash yuzasidan nazorat olib borish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

noshirlik faoliyatidagi loyihalashni axborot-bibliografik ta’minlash va reklama qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

noshirlik mahsulotini targ‘ib qilish va tarqatish faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

noshirlik mahsulotini targ‘ib qilish bo‘yicha marketing tadbirlarini tashkil qilish;

noshirlik mahsulotini targ‘ib qilish faoliyatini axborot-bibliografik ta’minlash;

noshirlik mahsulotini ulgurji va chakana tarqatish kanallari assortimentini talab va takliflar asosida shakllantirish;

mijozlar bazasini tahlil qilish;

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish; fikrlar har xil bo‘lganda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijasini baholash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga ega bo‘lish, ularni mustaqil ravishda tizimli tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida hisobga ola bilish;

O‘zbekistonning eng yangi tarixini bilish;

ingliz tilida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o‘z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish ko‘nikma va qobiliyatlariga ega bo‘lish;

zamonaviy axborot texnologiyalarining amaliy dasturlar paketlaridan foydalanishni va natija olishni bilish;

maxsus axborot tizimlarini ishlab chiqarishni va ulardan natija olishni bilish;

ijodiy fikrlash va o‘z vazifasiga kreativ yondoshish;

ranglar bilan ishlay olish;

grafik muharrir dasturlaridan mohirona foydalanish;

nozik ta’b va yuqori vizual didli bo‘lish;

noshirlik ishida foydalaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda foydalana olish;

Veb texnologiyalarning ishlash prinsipi, texnik va dasturiy ta’minoti, imkoniyatlari va veb dizaynerlik ko‘nikmalari va tayyor veb saytlar yaratishni bilish;

dinamik sahifalarni yaratish va turli hodisalar uchun maxsus scriptlar yozish;

raqamli va OAV nashr etish hamda Blog yaratish: multimedia mazmunli blog yaratishni bilish va natija olish;

noshirlik ishi faoliyatini tashkillashtirish va ish jarayonini boshqarish va

kasbiy faoliyatda foydalana olishni bilish;

kompyuter grafikasi, rastrli va vektorli grafika amaliy dasturlaridan foydalana olish va natija olish;

Corel Draw dasturida kompyuter grafikasi va dizayn ishlarini bajarish;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida milliy qahramonlar va badiiy qahramonlarning vizual obrazlarini yaratish;

Adobe Photoshop dasturida kompyuter grafikasi va dizayn ishlarini bajarish;

3Ds Max dasturida kompyuter grafikasi va dizayn ishlarini bajarish;

milliy g‘ururni uyg‘otish va ma’naviy tarbiyaga qaratilgan multimedia mahsulotlarini yaratish;

Printer, plotter va boshqa chop qilish uskunalarini boshqara olish;

tayyor mahsulotni muqovalash, ramkalarga yoki tasviriy oynalarga joylashtirish;

marketing, ishlab chiqarish, veb-sayt dizayni, korporativ identifikatsiya, mahsulot qadoqlash, reklama va multimedia dizayni haqida tushuncha va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish;

SMM menejeri sifatida ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish yo‘llarini bilish hamda SEO boshqarishdan foydalana olish;

multimedia texnologiyalarning ishlash prinsipi, texnik va dasturiy ta’minoti, imkoniyatlari va tayyor dasturiy ta’minotlardan foydalana olishni bilish;

bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan android ilovalarni yaratish, UX/UI loyihalash, ma’lumot almashinuvini ta’minlaydigan mobil ilovalarni ishlab chiqish hamda istiqbolli har xil turdagi talablarni bajaradigan va kengaytirilgan ilovalarni yaratish;

ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari hamda SQL tilida turli MB yaratish va uni boshqarish;

kitob tarixi, bosma ishlar tarixi, gazetalar va jurnallarni nashr qilish tarixi, noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari, noshirlik ishining texnologik sxemasi, noshirlik mahsulotlarining turi va tiplari, qo‘lyozma va originalni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar, noshirlik mahsuloti o‘lchash birliklari, poligrafik ishlar uchun materiallar, noshirlik mahsulotida chiqish ma’lumotlari, kitoblarni raqamlashning xalqaro standartlari, seriyali mahsulotlarni raqamlashning xalqaro standartlari, mualliflik huquqi haqidagi bilimlarga ega bo‘lish, ularni o‘z faoliyatida qo‘llash;

matn ta’rifi masalasi, matn birliklari, matn tiplari, matn tarkibiy qismini bog‘lovchi vositalar, matn va uning lingvistik tahlili, badiiy matn va uni shakllantiruvchi vositalar haqidagi ma’lumotlarni bilish hamda bu bilimlardan noshirlik ishi faoliyatida foydalana olish;

matnni nashrga tayyorlash nazariyasi, muharrirlik tarixi, muharrirning ijtimoiy pozitsiyasi va erkinligi, muharrirning kasbiy xislatlari, janrlar tiplari va turlari, muharrir ishining spetsifikasiya va algoritmi, matiqiy tahlil, sarlavhalar tahlili, til va uslub yuzasidan tahlillar, xatolar tabiati, tiplari haqidagi bilimlarga ega bo‘lish hamda bu bilimlardan noshirlik ishi faoliyatida foydalana olish;

jahon va o‘zbek adabiyotining tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar tushunchasi, mumtoz adabiyot tushunchasi va uning xususiyatlari, o‘zbek adabiyoti

tarixining taraqqiyot bosqichlari, jahon adabiyoti tarixining nazariy muammolari, jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilish, jahon adabiyoti namoyandalari haqida tizimli bilimlarga ega bo’lish, bu bilimlardan tahrir jarayonida foydalana olish;

fonetikaning uslubiy xususiyatlari, muallifga xos uslubiy vositalar, leksik birliklar va ularning uslubiy o’rni, so‘z qo‘llashning o‘ziga xos uslubiy yo‘llari, so‘z turkumlarining matn tarkibidagi uslubiy roli, sintaksisning uslubiy xususiyatlari, funksional uslublar, tinish belgilaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlari, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanishning keng uslubiy imkoniyatlarini bilish, bu bilimlardan tahrir jarayonida foydalana olish;

grafik, orfografik va punktuatsion me’yorlar, yozuv tarixi, o‘zbek tili imlo qoidalari, punktuatsion me’yorlar tarixi, tinish belgilari turlari, ularning qo‘llanish holatlari, tovushlar tizimi va uning yozuvda aks etishini bilish, joriy imlo qoidalarida yuzaga kelgan munozarali o‘rinlarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirish, bu bilimlardan tahrir jarayonida foydalana olish;

hozirgi o‘zbek adabiy tili, uning bo‘limlari: fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, matn lingvistikasi kabi bo‘limlarni to‘liq o‘zlashtirish, bu bilimlardan tahrir jarayonida foydalana olish;

tahrir tarixi, muharrirning nashr jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, matn tahlili va tahriri, matn yaxlitligi, matn qismlarining uyg‘unligi, yozma nutq talablari, matnning mantiqiy tahlili kabilarni o‘rganish;

so‘z qo‘llashning o‘ziga xos uslubiy yo‘llari, so‘z turkumlarining matn tarkibidagi uslubiy roli, sintaksisning uslubiy xususiyatlari, funksional uslublar, so‘zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlarini o‘rganish;

joriy imlo qoidalarini mukammal bilish, imlo qoidalarida yuzaga kelgan munozarali o‘rinlarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirish;

noshirlik ishi faoliyatini tashkillashtirish va ish jarayonini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olish;

jahon va o‘zbek adabiyotining eng sara namunalarini bilish, badiiy matn bilan ishlashni o‘rganish;

hozirgi o‘zbek adabiy tili, uning bo‘limlari: fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, matn lingvistikasi kabi bo‘limlarni to‘liq o‘zlashtirish;

multimedia texnologiyalarning ishlash prinsipi, texnik va dasturiy ta’minoti, imkoniyatlari, yo‘nalishlar sohasidagi mutaxassislikka oid onlayn noshirlik ko‘nikmalarini va tayyor dasturiy ta’minotlardan foydalana olish;

noshirlik ishining huquqiy asoslarini bilish;

noshirlik ishida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatni yurita olish;

mediyabiznes va mediabozor asoslarini o‘rganish;

mediatahrir asoslarini bilish, rasmiy matn bilan ishlashni o‘rganish;

nashr mahsulotlarini tarqatishning nazariyasi va amaliyotini o‘rganish;

kitob mahsulotlarini tarqatish texnologiyasini o‘zlashtirish.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi

o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikdagi kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulotlar va akademik vazifalarini bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo’nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.
2. Ishlab chiqarish amaliyoti – kasbiy mahoratni oshirishga qaratiladi.

4. Fan katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarning nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		Umumiy Majburiy fanlar	5070	169	1-7
1.01	F1104	Falsafa	120	4	1
1.02	O‘EYT1204	O‘zbekiston eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	JMS2304	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	3
1.04	DSh2404	Dinshunoslik	120	4	4
1.05	XT35-715	Xorijiy til	450	15	5,6,7
Majburiy fanlar					
1.06	NIAT1105	Noshirlik ishida axborot texnologiyalari	150	5	1
1.07	O‘TL1105	O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi	150	5	1
1.08	ZMShA1105	Zamonaviy matnshunoslik asoslari	150	5	1
1.09	WD11-210	Web dizayn	300	10	1,2
1.10	HO‘AT11-211	Hozirgi o‘zbek adabiy tili	330	11	1,2
1.11	IM1206	Imlo muammolari	180	6	2
1.12	NA1205	Noshirlik asoslari	150	5	2
1.13	KGD12-415	Kompyuter grafikasi va dizayn	450	15	2,3,4
1.14	MON2306	Multimedia va onlayn nashrlar	180	6	3
1.15	O‘BOTT2305	O‘zbekistonda bosma OAV tizimi va tili	150	5	3
1.16	TNT23-410	Tahrir nazariyasi va texnikasi	300	10	3,4
1.17	DTIY2405	Davlat tilida ish yuritish	150	5	4

1.18	AT3505	Adabiy tahrir	150	5	5
1.19	AVU3505	Axborotlarni vizuallashtirish usullari	150	5	5
1.20	JO‘A35-610	Jahon va o‘zbek adabiyoti	300	10	5,6
1.21	RS35-610	Raqamli sahifalash	300	10	5,6
1.22	O‘TAS3605	O‘zbek tilining amaliy stilistikasi	150	5	6
1.23	MIYT4705	Mobil ilovalar yaratish texnologiyasi	150	5	7
1.24	MBA4705	Noshirlikning huquqiy asoslari	150	5	7
1.25	NIMM4705	Noshirlik ishida menejment va marketing	150	5	7
2.00		Tanlov fanlar	1230	41	
		<i>Tanlov fanlar (8 ta fan)</i>	<i>1230</i>	<i>41</i>	<i>3-8</i>
		Jami	6300	210	
Kvalifikatsiya:		noshir, noshirlik menejeri.			
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	0	0	
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7
OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch soʻzlar:

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o’quv reja, kompetentsiya, kredit, modul, kasbiy faoliyat turlari, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o’quv reja va fan dasturi, profil, o’qib-o’rganish natijalari, o’quv sikli, bibliografik havola, bibliografik ro’yxat, broshyura, buklet, byulleten, VIP-jurnal, geosiyosat, dalillash, axborot globallashuvi, ISBN (International Standard Book Number), JCR (Journal Citation Reports-Science Edition), impakt-faktor, indekslar, imijmeyker, interaktiv jurnalistika, indeksatsion raqamlash, kegl, kolontitul, korrektura, kompozitsiya, kreativ, konsensus, kopirayt, marketing kommunikatsiyasi, musahhih, muqovalash, media-biznes, media-matn, muallif varag’i, muallif huquqi, nashriyot moliya rejasi, press-reviz, patent, tiraj, taqriz, format, hammualliflik, havola, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellashtirish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Rektor Sh.Sirojiddinov

m.o’.





KELISHILDI:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**“Mahalla va oila”
nashriyoti**

Direktor M.Boltaboyev

Bosh direktor B.Mavlonov



“KEEP PRINT” MCHJ

Direktor A.Narzulloyev

2024 - yil
m.o’

